

ABDULG'OZIY BAHODIRXON ILMIY MEROSI VA TARIXSHUNOSLIKDAGI O'RNI

Farg'ona davlat universiteti

23.90A-guruh talabasi

Mamasobirova Husnora

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulg'ozi Bahodirxon ilmiy merosi xususan uning asarlari, bu asarlarning tarixiy ahamiyati va tarixshunoslikdagi o'rniga bag'ishlangan fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Abdulg'ozi Bahodirxon, Shajarayi turk, Shajarayi tarokima, Anusha Muhammadxon, Muhammad ibn mulla Muhammad Zamon Urganjiy, Abdullaxon II, turkman urug'lari Chovdur.

O'zbek tarixshunosligida Abulg'ozi Bahodirxon (1603–1663) o'zining ilmiy va tarixiy merosi bilan alohida o'rniga egadir. U nafaqat Xiva xonligining hukmdori, balki yirik tarixchi sifatida ham mashhur bo'lib, o'z davrining muhim voqealarini qalamga olgan tarixiy shaxsdir. Uning eng mashhur asarlari – "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk"da – Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishi, siyosiy tarixi va etnik tarkibini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek tibbiyotga oid "Manofe ul-inson"(Insonga foydali narsala) nomli asar ham yozgan. Abulg'ozi Bahodirxonning tarixiy asarlari faqatgina o'z davrining voqealarini yoritibgina qolmay, balki turkiy xalqlarning kelib chiqishi, ularning davlat qurilishi va urf- odatlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. U tarixchilik faoliyatida an'anaviy sharq tarixiy metodlarini qo'llagan bo'lsa-da, o'z asarlarida aniq faktlarga, og'zaki va yozma manbalarga tayanishga harakat qilgan. Bu jihati uni faqat hukmdor emas, balki mustaqil tarixiy fikrlovchi sifatida ham e'tirof etish imkonini beradi. Shuningdek bu asarlar muallif o'z ko'zi bila ko'rgan va eshitgan faktlar asosida yaratilganligi boshqa tarixiy asarlardan ajratib turuvchi asosiy xususiyati hisoblanadi. Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" asarlari turkiy xalqlarning etnogenezi, genealogiyasi va siyosiy tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi noyob manbalardir. Ularning tarixshunoslikdagi o'rni

nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, balki butun turkiy dunyoning o'zligini aniqlashda ham katta ahamiyatga ega. Abulg'ozixonning eng yirik asari «Shajarayi turk» nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664 yillarda yozilgan. Asar Xorazm tarixining XVI-XVII asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy siyosiy tarixini bayon etishda nodir manbadir. Abulg'ozixon kelgusi avlodlarga tuhfa qilib qoldirarajak asarini yaratishga kirishar ekan, uydirma va soxtalikka shuningdek baland parvoz yalg'on gaplarga, o'sha davr hukumatini ulug'lashga yo'l qo'ymaslikka, tarixdan chetga chiqmaslikka harakat qiladi. Abulg'ozixon Bahodirxon asarini tarixiy xolislik va o'sha davr voqealigiga hukmdor emas balki bir tarixchi sifatida fikr bildiradi. Abulg'ozixon mazkur asarini yaratishda forsiy va turkiy tillarda yozilgan o'n sakkizta manbaga tayanadi. Bu haqda uning o'zi shunday deydi: «Eron bilan Turonda o'tgan Chingizxon o'g'illarining otlarini aytilgan tarixlardan ushbu zamon faqirning oldinda o'n sakkiz mujollik hozir turar». Abulg'ozixon o'z ona tilini yaxshi bilganidek forsiy-tojik, shuningdek, mo'g'ul tillarini ham puxta egallagan edi. U o'z asarlarini ona tilida yozgan. Abulg'ozixon Bahodirxon: «Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilisin deb, turk tili bilan aytdim. Bir kalima chig'atoy turkiydan, forsiydan va arabiydan qo'shmayman, ravshan bo'lsin deb, turkiyni ham andoq aybtimanki, besh yashar o'g'lon tushunur», – deb yozadi. Asar Abulg'ozixon Bahodirxon o'limidan keyin oxiriga yetkazilmay qolgan bo'lsa ham, uning o'g'li Anusha Muhammadxon (1663-1687) buyrug'iga muvofiq, urganchlik tarixchi Maxmud ibn Mulla Muhammad Zamon Urganjiy tomonidan ayrim ma'lumotlariga o'zgarish va to'ldirish ishlarini kirgazadi. Abulg'ozixon Bahodirxon asar yaratilishi bo'yicha shunday yozadi: «Ammo bizning otalarimizning beparvolig'i va Xorazm xalqining bevuquflig'i, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullaxonning (Abdullaxon II) otalari birlan bizning otalarimizning ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk, hech munosib kishi topmaduk, zarur bo'ldi (va) ul sababdin o'zimiz aytduk». Asar muqadimma va 9 bobdan tashkil topgan.

Abulg'ozixon Bahodirxonning asarlari ichida "Shajarayi tarokima" ("Turkmanlar shajarasi") muhim o'rin tutadi. Muallifning aytishicha, "Shajarayi tarokima" turkman oqsoqollari va ulug' boshliqlarning taklifiga ko'ra oddiy turk kishisi tushinadigan tilda yozilgan. « Asar 1660—1661- yillar orasida ijod qilingan. "Shajarayi tarokima" yozma

obidasida turkman qavmi bilan Xiva xonligi orasidagi siyosiy kurashlar, turkmanlarni itoat qildirish uchun olib borilgan kurashlar bayon etilgan, o'zbek va turkman xalqlari o'rtasida inoqlik o'rnatilishi ta'kidlangan. Asar eski o'zbek tilida yozilgan bo'lib, Odam-ota haqidagi diniy xarakter va mazmundagi afsonalar, o'g'uz-turkmanlar haqidagi ma'lumotlar tarixiy faktlar va real asosgan ega bo'lgan voqealar bayon qilinadi.

Asar turkiy qabilalar xususan, turkman xalqining kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlar bilan qimmatlidir. Unda barcha turkiy qabilalarning afsonaviy hukmdori O'g'uzxon va uning avlodlari haqida, shuningdek turkman urug'lari – Tekke, Salor, Yomut, Ersari, Gokleng, Xizr eli, Ali eli, Chovdur va boshqalarning genezisi xususida muhim tarixiy ma'lumotlar berilgan. Abulg'ozining asarlari Sharq tarixchi va olimlarnigina emas, balki rus va boshqa chet olimlarning ham diqqat e'tiborini o'ziga tortadi. Jumladan, rus tarixiy adabiyotlarida xorijiy tillardan tarjima qilingan asarlar qatoriga 1770-yildan «Shajarayi turk» asari ham qo'shildi. Muallifning «Shajarayi turk» asari 1825-yilda Qozonda Rumyansev, 1854-yilda G.S.Sablukov, 1871-yilda P.I.Demizonlar tomonidan, «Shajarayi tarokima» asari esa 1898 va 1966-yillarda bir necha marotaba rus tilida nashr etildi. «Shajarayi turk»ning rus tiliga tarjimasi Rossiya oliy o'quv zotlarida Sharq xalqlari tarixi va tilini o'qitish ishiga ham ijobiy ta'sir etdi. Abulg'ozi Bahodirxon asarlari qimmatliligini ko'plam olimlar va tarixchilar aytib o'tishgan, bu asarlar turklar umuman turkiy muhitni jonlantirishga muhim manba bo'lib xizmat qilishganini takidlashadi. «Abulg'ozining asarlari yana shuning uchun ham muhimki, mazkur muallifdan ilgari bunday asarlar yaratilmagan edi, shuningdek, ular vujudga kelgan va keyingi XVIII—XIX asrlar uchun ham xarakterli bo'lib qolavergan Xiva — turkman munosabatlarini va turkmanlarning Buxoro va Eron bilan o'zaro aloqalarni tushunish uchun juda boy material beradi».

40-yillarda «Shajarayi turk»ni o'rganishga kirishgan, «O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi»ni urushgacha tayyorlab nashriyotga topshirgan adabiyotshunos Olim Sharofiddinov (urushda halok bo'lgan) 1945 yilda nashr etilgan «O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi»ning ikkinchi kitobida «Shajarayi turki» kitobi haqida qisqacha ma'lumot va undan ayrim namunalar berib: «Abulg'ozi Bahodirxon binni Arabmuhammad o'zbek xonlari ichida Boburdan keyingi muhim shaxsdir. Uning madaniyat tarixida qilgan ishlari

ulug'»- deb adibga juda to'g'ri baxo beradi. Tarixshunoslik nuqtayi nazaridan Shajarayi turk va Shajarayi tarokima asarlari turkiy xalqlarning davlat boshqaruvi, siyosiy kurashlari, qabilalararo munosabatlari va madaniy hayoti haqida qimmatli dalillarni taqdim etadi. Ayniqsa, genealogik ma'lumotlar orqali ko'plab tarixiy shaxslarning nasl-nasabini kuzatish va ularning o'zaro bog'liqligini tushunish mumkin. Abulg'ozi Bahodirxon tarixchilikka faqat ilmiy nuqtayi nazardan emas, balki davlat arbobi sifatida ham yondashgan. U tarixni yozish jarayonida o'zining siyosiy tajribasidan foydalangan va uni real tarixiy voqealar bilan boyitgan. Bu jihatdan u Markaziy Osiyo tarixshunosligida o'ziga xos maktab yaratgan va keyingi tarixchilarga ilhom manbai bo'lgan. Umuman olganda, Shajarayi turk va Shajarayi tarokima nafaqat tarixiy manba, balki tarixni tushunish va talqin qilish usulini o'rgatuvchi asarlar sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Ular bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, turkiy xalqlar tarixi va madaniyatini tadqiq etishda muhim ilmiy manba bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulg'ozi Bahodir "Shajarayi turk". Toshkent. Cho'lpon nashiryoti 1992
2. Abulg'ozi Bahodir "Shajarayi tarokima". 1995. -2b.
3. X.Hudoynazarov "Abulg'ozi Baxodirxon tarixchi va adib" T.; "O'ZBEKISTON", 1994.-6b.
4. X.Hudoynazarov "Shajarayi TurK" va uning o'rganilishi TOSHKENT "O'QITUVCHI" 1993-7b.